qoladi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi
№ 586
"24" 08 2022 y.

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
O.N.Bozorov
"29" 08 2022 y.

# "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI" FANINING

# SILLABUSI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 700000 | - | Myxandislik ishlov berish qurilish sohasi |
| Ta'lim sohasi: | 710000<br>720000 | -<br>- | Muhandislik ishi<br>Ishlab chiqarish va ishlov berish |
| Ta'lim yo'nalishi: | 67215000 | - | Konchilik ishi (faoliyat turlari) |

"Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani bo'yicha 5311500 "Geologiya va kartografiya va kadastr" (qurilish) ta'lim yo'nalashi uchun soatlar taqsimoti.

| | |
|---|---|
| Umumiy o'quv soati | 120 soat |
| Shu jumladan: | |
| Ma'ruza | 30 soat |
| Laboratoriya | 30 soat |
| Mustaqil ta'lim | 60 soat |

Qarshi-2022

Fanning sillabusi Qarshi maxandislik iqtisodiyot instituti Uslubiy Kengashining 2022-yil 30 iyundagi 11- sonli qarori bilan tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar : N. Maxmatqulov- QarMII "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Fanning sillabusi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi yig'ilishida (bayon № 1, 26.08. 2022 y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon № 1, 27.08 2022 y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon № 1, 29.08 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i: Sh.Turdiyev

Fakul'tet uslubiy komissiyasi raisi M. G'ofirov

"Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedra mudiri: R.A.Eshonqulov

## "Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani sillabusi

| Fan (modul) kodi FVAM-1.04 | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 3 | ECTS krediti 4 |
|---|---|---|---|
| Fan (modul) turi Majburiy | Ta'lim tili- o'zbek | | Haftalik dars soati 4 |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim | Jami yuklama |
| "Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani | 60 | 60 | 120 |

## O'qituvchi haqida ma'lumot

| Kafedra nomi | Ekologiya va mehnat muhofazasi | | |
|---|---|---|---|
| O'qituvchilar | F.I.Sh. | Telefon nomeri | e-mail |
| Ma'ruzachi | Maxmatqulov Nurilla Imomovich | +99899 660 0114 | nurilla.mahmatqulov@mail.ru |
| Seminar | Maxmatqulov Nurilla Imomovich | +99899 660 0114 | nurilla.mahmatqulov@mail.ru |

# I. KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Hozirgi davrda butun jahonda texnika va texnologiya, qishloq xo'jaligi va koinotni o'rganish tez suratlar bilan o'shishi, tabiiy resurslar, o'simlik va hayvonat olamidan pala-partish foydalanish va yovvoyi tabiatni o'zlashtirish natijasida tabbiiy, biologik, texnogen, ekologik va boshqa ko'pgina xavflar vujudga kelmoqda. Bu holat esa inson hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash muammolari yanada keskinlashmoqda. Shu sababli ham atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofoniga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish masalalari davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Fan, texnika, ta'lim sohasi, ishlab chiqarishda texnologiya qanchalik rivojlanmasin inson havf-xatardan to'liq kafolatlangan emas.Chunki insonning barcha faoliyati va atrof muhit komponentlarining xavfli va zararli omillari, har bir faoliyat natijadan keyin yangi yashirin xavf paydo bo'lishi tabbiy holdir.

Hayot faoliyatini ta'minlash muammosini hal etish - odamlarni meyoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o'rab turgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan meyoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish, optimal mehnat faoliyat, dam olish sharoiti yaratish va ishlab chiqarishda yuqori ish samaradorlikka erishishdan iboratdir.

*Hayot faoliyati xavfsizligining eng asosiy formulasi – bu yashirin (potensial) xavflar haqida ogohlantirish va oldini olishdan iborat.*

Ishlab chiqarishda barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash maqsadida, atrof muhitda bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni aniglash, tushinish, oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo'lishi lozim. Aynan ushbu bilimni «Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi» fani o'rganadi. Ushbu "Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi" fan sillabusi davlat ta'lim standarti va namunaviy dastur asosida tuzilib "Geologiya va kartografiya va kadastr" (qurilish) ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko'nikmasiga bo'lgan talablar, mashg'ulotlarning mavzusi va qisqacha mazmuni, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur texnik vositalar mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

## I.2. Fanning oliy ta'limdagi o'rni hamda maqsadi va vazifalari

Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi fani insonning hayotida sodir bo'ladigan turli ko'rinishdagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalanish yo'llarini o'rganishga qaratiladigan nazariy fandir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi.

Insonning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda, ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik meyorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

*Fan o'qitilishining maqsadi* – bo'lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalanishga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

*O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari:* hayot faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarning oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalanish usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Hayot faoliyati xavfsizli va mehnat muhfazasini o'qish natijasida bo'lajak mutaxassislar quyidagi bilim va malakaga ega bo'lishlari fanning asosiy vazifalari sanaladi.

*a) Tasavvurga ega bo'lishlari kerak:*

-xavf va xavflarnning sodir bo'lish jarayonlari;

- mehnat turlari va klassifikatsiyasi;

-baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklari kelib chiqish sabablari;

-ishlab chiqarish sanitariyasi asoslari haqida tasavvurga ega bo'lish;

-tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarning umumiy tavsiflari;

-yong'in va elektr xavfsizligi talablari

-shaxsiy himoya vositalarining turlari va ulardan foydalanish.

*b) Talabalar bilishlari kerak:*

-hayot faoliyati xavfsizligi sohasida qabul qilingan normativ huquqiy xujjatlarning asosiy talablari;

-ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasiga qo'yiladigan talablar

- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini (FVDT);

-favqulodda vaziyatlarda o'z-o'ziga va o'zaro tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari va tartibini;

-sanoat karxonalarida yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligiga qo'yiladigan talablar;

-jamoa va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari va tartibini.

*v) Talabalar bajarishlari lozim:*

-sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan xavflardan himoyalana olishi;

-mehnat muhofazasiga oid normativ xujjatlar asosida xodimlarni himoya qila olish;

- jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olishni;

-favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda harakat qilishni;

-jamoa va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanishni;

-radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka va dozimetrik nazorat asboblari bilan ishlashni;

### 1.3. Hayot faoliyati havfsizligi fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

"Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fani "Mehnat muhofazasi", "Muhandislik psixologiyasi", "Psixofiziologiya", "Ergonomika", "Texnikaviy estetika", "Atrof muhit himoyasi va ekologiya", "Favqulodda holatlar va fuqorolar muhofazasi" kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bilan birga tadqiqot qiladi va o'rganadi. Lekin, insonning hayot faoliyatida barcha turdagi bog'lanishlar bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli inson o'z faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli insonning hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning inson sog'ligiga va mehnat qobiliyatiga birgalikda ta'sirini alohida mustaqil fan sifatida "Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" o'rganadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki ishlab chiqarish jarayonida ishlovchilarni kasb kasalligiga chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish shuningdek, Biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan favqulodda vaziyatlarda insonlar o'limi va moddiy zararlar miqiyosini kamaytirish imkonini beradi.

## II. FANNI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda obektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlar va internet tarmog'idan foydalaniladi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim*- bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

*Tizimli yondashuv*- ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

*Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv*-. shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

*Dialogik yondashuv*- bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z – o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

*Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish*- demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

*Muammoli ta'lim*- ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini ijodiy tarzda qo'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

*Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash*–yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

*O'qitishning usullari va texnikasi*-ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

*O'qitishni tashkil etish shakllari*- dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

*O'qitish vositalari*- o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

*Monitoring va baholash*- o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Pover Point" prezentastiya va "Excel" elektron jadval dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ulubiy ko'rsatmalar ko'rinishidagi tarqatma materiallar tayyorlanadi, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

## III."HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI" FANIDAN MASHG'ULOTLARNING MAVZULARI VA SOATLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI

### 3.1. Ma'ruza mashg'ulotlari

| T/R | Mavzu, bo'lim nomi | Umumiy soat |
|---|---|---|
| **1-Modul. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlashning nazariy asoslari** | | |
| 1 | **1-mavzu. "Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi" faniga kirish**<br>Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash. Hayot faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari va terminlari. Hayot faoliyati xavfsizligi tarkibiy qismlari va ularning tekshirish obektlari. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariy asoslari. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 2 | **2-mavzu. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlashning tashkiliy va huquqiy asoslari.** Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlashning tashkiliy asoslari. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlashning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Mehnat muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni va Mehnat kodeksi hamda boshqa normativ huquqiy xujjatlaring mazmun mohiyati | |
| 3 | **3-mavzu. Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish** Xavflar, ularning tasnifi. Faoliyat xavfsizligini ta'minlash uslublari. "Inson - muhit" tizimida inson omili. "Tavvakal" nazariyasi mohiyati | 2 |
| 3 | **4-mavzu. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil qilish** Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimi, xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarini rejalashtirish. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini mablag' bilan ta'minlash. Xavfsiz faoliyatni tashkil qilishda xodimlar bilimini tekshirish va o'qitish | 2 |
| 5 | **5-mavzu. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika va psixologik asoslari** Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomika asoslari asosiy prinsip va usullari. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Inson faoliyatini tashkil qilishning psixologik jihatlari. Ish joylarini estetik jihozlash | 2 |
| **2-Modul. Ishlab chiqarish obektlarida mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarish** | | 2 |
| 6 | **6-mavzu. Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigiyenasi meyorlari** Ishlab chiqarish mikroiqlim gigiyenik meyorlari, ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri. | 2 |
| 7 | **7-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimini tashkil etish .** Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimi ularning turlari. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimini hisoblash. Umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati. | 2 |
| 8 | **8-mavzu. Ishlab chiqarishda yoritish va uni meyorlari.** Tabiiy va sun'iy yoritish texnik va fizik ko'rsatkichlari. Yoritishga qo'yiladigan sanitar-gigiyenik talablar. Yoritish vositalari va turlari. | |
| 9 | **9-mavzu. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash.** Shovqin va titrash inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish sabablari va manbalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlarini belgilash.Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Himoyalanish vositalari. | |
| 10 | **10-mavzu. Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklari** Ishlab chiqarishda mehnat qobilyatini yo'qotilishi. Faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan avariyalar. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqtida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari. N-1 shakldagi dalolatnomani to'ldirish tartibi. | 2 |
| 11 | **11-mavzu. Ishlab chiqarishda elektr xavfsizlik asoslari** Ishlab chiqarishda elektr xavfsizlik asoslari. Elektr tokidan muhofazalanish usullari. Yerga ulab muhofazalanish tadbirlari. Inson tanasiga elektr tokigako'rsatayotgan qarshiligi. | 2 |
| 12 | **12-mavzu. Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari** Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Tabiiy texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar va undan muhofazalanish usullari..Fuqaro muhofazasining maqsadi va vazifalari. Fuqaro muhofazasi rejalarini tuzish. Fuqaro muhofazasi shatb-o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilsh va o'tkazish. | 2 |
| 13 | **13-mavzu. Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari** Zilzila va uning sodir bo'lishi. Zilzila turlari va aniqlash usullari. Zilzila va undan ogohlantirish, muhofazalanish tadbirlari. Zilzilaga aholini tayyorlash. Bino va inshootlarning zilzila bardoshligini oshirish. | 2 |
| 14 | **14-mavzu. Yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari** Yong'in ofati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot tarmoqlari binolari, inshootlari va qurilish materiallarining yong'inga qarshi bardoshlilik darajalari. Sanoat korxonalarning yong'inga va portlashga xavfi bo'yicha toifalar | 2 |
| 15 | **15-mavzu.Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish asoslari** Respublikada halokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartib va qoidalari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to'xtatish usullari. | 2 |
| | **Jami:** | **30** |

Ma'ruza mashg'ulotlari multimediya qurilmalar bilan jixozlangan auditorida akadem guruhlar bilan o'tiladi Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari- aqliy hujum, blits-so'rov, tahlil qilish, "ko'rgazmali ma'ruza", "suhbat", "bahs-munozara", "tushunchalar tahlili", "tarmoqlar", "kichik guruxlarda ishlash", baliq skeleti, BBB jadvali (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim).

### 3.2."Hayot faoliyati xafsizligi" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari.

| T/r | Laboratoriya mashg'ulotlar mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1. | Sanoat korxonalari va muassasalarda mikroiqlim sharoitlarini aniqlash | 2 |
| 2 | Ishlab chiqarish korxonalarda baxtsiz xodisalarni tahlil qilish va hisoblash | 2 |
| 3 | Kasbiy kasalliklarni va ishlab chiqarishdagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari | 2 |
| 4 | Ishlab chiqarish korxonalarda zararli chang konsentratsiyasini aniqlash. | 2 |
| 5 | Ishlab chiqarish korxonalarda zararli moddalar konsentratsiyasini aniqlash. | 2 |
| 6 | Ishlab chiqarish korxonalarda shamollatish tizimini o'rnatish va uning miqdorini belgilash | 2 |
| 7. | Sanoat korxonalaridagi shovqinlar sodir bo'lish sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish choralarni belgilash | 2 |
| 8. | Ishlab chiqarish joylaridagi tebranishni aniqlash va uni bartaraf etish choralarni belgilash | 2 |
| 9 | Ishlab chiqarishdagi tabiiy va sun'iy yorug'likni hisoblash usullari | 2 |
| 10 | Elektr jihozlarini yerga ulash usullarni o'rganish va miqdorini hisoblash. | 2 |
| 11 | Aholi va hududlarni kimyoviy radiatsion moddalardan ifloslanish ko'rsatkichini hisoblash | 2 |
| 12 | Radiatsion va kimyoviy moddalarni aniqlash jixoz va usunalarni o'rganish | 2 |
| 13 | Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda shaxsiy himoya vositalaridan foylanish usullarin o'rganish | 2 |
| 14. | Birlamchi o't o'chirsh vositalari ish unudorligini aniqlash | 2 |
| 15 | Baxtiz xodisaga uchraganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini o'rganish | |
| *Jami:* | | **30** |

Laboratoriya mashgulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chikiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari buyicha olgan bilim va ko'nikmalarini tajribalar orkali yanada boyitadilar. Shuningdek, texnologik jixoz va vosigalar, tarkatma materiallardan foydalanish, mavzular buyicha takdimotlar va kurgazmali ku roll ar tayyorlash, normativ-xuku kiy xujjatlardan foydalanish va boshkalar tavsiya etiladi.

### 3.3. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

HFX fani bo'yicha talaba mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

Fandan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

prezentatsiyalar tayyorlash;

ko'rgazmali vositalar tayyorlash;

maqola, tezislar tayyorlash;

bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash;

amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

### Hayot faoliyati xavfsizligi fanining mustaqil ish mavzulari

1. HFX muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.
2. Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.
3. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish.
4. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.
5. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
6. Ish o'rnini tashkillashtirishning talablari.
7. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
8. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.
9. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va meyoriy hujjatlar tizimi.
10. Hayot faoliyati xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
11. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
12. Odam anatomiyasining (antropometrik parametr-larining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
13. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili.
14. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va meyoriy hujjatlar taxlili.
15. Shovqin va titrashdan himoyalanish texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi.
16. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan meyoriy hujjatlar tizimi.
17. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.
18. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlar to'g'risida statik ma'lumotlar taxlili.
19. Yong'indan himoyalanishning zamonaviy texnik vositalari.
20. Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.
21. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen xavflar.
22. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.
23. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
24. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT)ning strukturaviy tuzilishini o'rganish.
25. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
26. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
27. "Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish.
28. "Chiqindilar to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish.
29. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimini o'rganish.
30. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini

| T/r | Laboratoriya mashg'ulotlar mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1. | Sanoat korxonalari va muassasalarda mikroiqlim sharoitlarini aniqlash | 2 |
| 2 | Ishlab chiqarish korxonalarda baxtsiz xodisalarni tahlil qilish va hisoblash | 2 |
| 3 | Kasbiy kasalliklarni va ishlab chiqarishdagi jarohatlarni tekshirish, hisobga olish va aniqlash usullari | 2 |
| 4 | Ishlab chiqarish korxonalarda zararli chang konsentratsiyasini aniqlash. | 2 |
| 5 | Ishlab chiqarish korxonalarda zararli moddalar konsentratsiyasini aniqlash. | 2 |
| 6 | Ishlab chiqarish korxonalarda shamollatish tizimini o'rnatish va uning miqdorini belgilash | 2 |
| 7. | Sanoat korxonalaridagi shovqinlar sodir bo'lish sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish choralarni belgilash | 2 |
| 8. | Ishlab chiqarish joylaridagi tebranishni aniqlash va uni bartaraf etish choralarni belgilash | 2 |
| 9 | Ishlab chiqarishdagi tabiiy va sun'iy yorug'likni hisoblash usullari | 2 |
| 10 | Elektr jihozlarini yerga ulash usullarni o'rganish va miqdorini hisoblash. | 2 |
| 11 | Aholi va hududlarni kimyoviy radiatsion moddalardan ifloslanish ko'rsatkichini hisoblash | 2 |
| 12 | Radiatsion va kimyoviy moddalarni aniqlash jixoz va usunalarni o'rganish | 2 |
| 13 | Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda shaxsiy himoya vositalaridan foylanish usullarin o'rganish | 2 |
| 14. | Birlamchi o't o'chirsh vositalari ish unudorligini aniqlash | 2 |
| 15 | Baxtiz xodisaga uchraganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini o'rganish | |
| *Jami:* | | **30** |

Laboratoriya mashgulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chikiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari buyicha olgan bilim va ko'nikmalarini tajribalar orkali yanada boyitadilar. Shuningdek, texnologik jixoz va vosigalar, tarkatma materiallardan foydalanish, mavzular buyicha takdimotlar va kurgazmali ku roll ar tayyorlash, normativ-xuku kiy xujjatlardan foydalanish va boshkalar tavsiya etiladi.

### 3.3. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

HFX fani bo'yicha talaba mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

Fandan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

prezentatsiyalar tayyorlash;

ko'rgazmali vositalar tayyorlash;

maqola, tezislar tayyorlash;

bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash;

amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

### Hayot faoliyati xavfsizligi fanining mustaqil ish mavzulari

1. HFX muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.
2. Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.
3. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish.
4. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.
5. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
6. Ish o'rnini tashkillashtirishning talablari.
7. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
8. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.
9. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va meyoriy hujjatlar tizimi.
10. Hayot faoliyati xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
11. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
12. Odam anatomiyasining (antropometrik parametr-larining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
13. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili.
14. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va meyoriy hujjatlar taxlili.
15. Shovqin va titrashdan himoyalanish texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi.
16. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan meyoriy hujjatlar tizimi.
17. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.
18. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlar to'g'risida statik ma'lumotlar taxlili.
19. Yong'indan himoyalanishning zamonaviy texnik vositalari.
20. Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.
21. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen xavflar.
22. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar.
23. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
24. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT)ning strukturaviy tuzilishini o'rganish.
25. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
26. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
27. "Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish.
28. "Chiqindilar to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish.
29. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimini o'rganish.
30. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini

o'rganish.

31. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.

32. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.

## IV. FAN BO'YICHA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH

Talabalar bilimini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

**Joriy nazorat** - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

**Oraliq nazorat** – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

**Yakuniy nazorat** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha ON kafedra yig'ilishi va fakultet Kengashi qaroriga asosan 1 marta o'tkaziladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

***a) 5 ball uchun talaba***- bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim-xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

***b) 4 ball uchun talaba***- bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim-mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

***v) 3 ball uchun talaba***- bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim-mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R = V \times Q / 100$$

bu yerda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); Q - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

## V. INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOTI.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarga oid qonunlari, kodekslar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektorn adabiyotlar, virtual laboratoriyalar, laboratoriya mavzusiga oid texnik jihozlar, turli slaydlar, vikepediyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

### 5.1. Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. B.M.Xolbayev, O.D.Raximov, N.I. Maxmatqulov Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik (1-qism). – T.: «Voris–nashriyot», 2020. 304 b

2. M.X. Tojiyev, I. Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma –T.: "Tafakkur- Bo'stoni", 2012. -272 b.

3. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007

4. E.I. Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.

### 5.2. Qo'shimcha adabiyotlar

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.

9."Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentabr.

6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.

7."Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 , 37-38-son.

### 5.3. Internet saytlari

12.www.gov.o'z – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

13.www.lex.o'z – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

14.www.mintrud.o'z–Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.

15.www.bilim.o'z – OUMTV sayti